Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2026-yil 27-avgust, payshanba,
75 (24.255)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz info@zarnews.uz

O‘zbek xalq maqoli

Ahd qilgan baxt topar

MUSTAQILLIK 35

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!

eco bozor tabiat saxovati

Bayram arafasida yangi inshootlar ishga tushdi

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ishtirokida mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan hududlarda yangi obyektlarni ishga tushirish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda davlatimiz rahbari hududlardagi 47,4 trillion so‘mlik (72 ta investitsiya loyihasi va 91 ta ijtimoiy soha obyekti) 163 ta yangi obyektni ochib berdi. Jumladan, viloyatimizda ham 1,83 trillion so‘mlik 10 ta obyekt foydalanishga topshirildi. Yangi ochilgan loyihalar qurilish materiallari, savdo va xizmat ko‘rsatish, turizm va boshqa qator sohalarni qamrab olgan.

Xususan, Samarqand shahrining Sartepa massivida qiymati 15 million dollarlik 6 qavatli zamonaviy savdo majmuasi ishga tushirildi. Ushbu savdo kompleksining ochilishi bilan 700 nafardan ortiq aholi doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi.

Tadbirkorlarning sa’y-harakati bilan eski va bugungi kun talablariga javob bermaydigan bozorcha o‘rnida qad rostlagan savdo majmuasi 20 ming kvadrat metrni tashkil etadi. Bu yerda 125 ta do‘kon, oshxona, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, bolalar maydonchalari mavjud. Shuningdek, majmuada ekobozor ham tashkil etilib, 80 ta rastada aholiga sifatli va zamonaviy savdo xizmati ko‘rsatiladi.

Turistlar geografiyasining kengayishi va sayyohlar oqimining ko‘payishi mehmonxonalarni ko‘paytirish lozimligini ko‘rsatadi. Bu yo‘nalishda joriy yilning o‘zida 65 ta yangi joylashtirish vositasi foydalanishga topshirilib, qariyb



1500 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Istiqlolimizning 35 yilligi arafasida Samarqand shahrining Panjob mahallasida qiymati 5 million dollarlik yangi mehmonxona ishga tushirilib, 70 dan ortiq ish o‘rni yaratildi.

Samarqand shahrida 83-maktab, Jomboy tumanida 20-umumta’lim maktabi binolari foydalanishga topshirildi. Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 30-umumta’lim maktabi, Paxtachi tumanidagi 10-davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti binolari ham eng ulug‘, eng aziz bayram arafasida ishga tushirildi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-MODDASI.

Fidoyilar e’tirof etildi

Viloyat hokimligida Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi munosabati bilan taqdirlangan yurtdoshlarimizga mukofotlarni topshirish marosimi o‘tkazildi.





Prezidentimizning shu yil 22-avgustda qabul qilingan farmonlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi munosabati bilan fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat va san’at sohalari, ommaviy axborot vositalari xodimlari, davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar vakillari, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Jumladan, Samarqand viloyatidan 27 nafar yurtdoshimiz davlatimizning yuksak unvon, orden va medallariga sazovor bo‘ldi. Shuningdek, turli sohalarning 3 mingdan ortiq vakillari “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishoni bilan taqdirlandi.

Viloyat hokimi A.Boboyev marosim qatnashchilarini Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz besh yilligi va yuksak mukofotlar bilan tabrikladi.

– Sharq gavhari, dunyo sivilizatsiyasi va ilm-fan beshiklaridan biri bo‘lgan Samarqand bugun Yangi O‘zbekistonning jadal rivojlanayotgan hududi, xalqaro muloqot maydoniga aylanib bormoqda, – dedi viloyat rahbari. – Viloyatimizdagi ulkan qurilish-bunyodkorlik ishlari, sanoat, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalardagi izchil o‘sish sur’atlari ta’minlanishida siz – fidoyi va mehnatkash samarqandliklarning hissangiz beqiyos. Bunday fidoyilik esa hech qachon e’tibordan chetda yoki rag‘batsiz qolmagan. Ushbu qutlug‘ va shodiyona kunlarda sizlarga va sizlar orqali oila a’zolaringizga mustahkam sog‘liq, uzoq va mazmunli umr, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik tilayman.

Marosimda davlat mukofotlari va esdalik nishonlari o‘z egalariga tantanali topshirildi.

– Yaratganga shukr, qariyb 90 yosh ostonasida Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi esdalik nishonini olish nasib etdi, – deydi mehnat faxriysi Maryam Shodiyeva. – Shu paytgacha davlat idoralarida, jamoat tashkilotlarida ishlab, mehnatlarim e’tirof etildi, ko‘p orden va medallar bilan taqdirlandim. Lekin bugun Mustaqillikning 1 yilligi esdalik nishonini taqib keldim va uning yoniga 35 yillik nishon qo‘shildi. Ana shu o‘ttiz besh yilning har bir yili jonajon Vatanimiz, har bir yurtdoshimiz hayotida o‘z izini qoldirgan, shu davr mobaynida nafaqat mamlakatimiz yangilandi, balki bizning ongu dunyoqarashimiz ham o‘zgardi, qalbimizda mustaqil O‘zbekistonning fuqarosiman, degan faxr paydo bo‘ldi. Esdalik nishonlar menga o‘ttiz besh yillik tarixni eslatyapti.

Davlatimiz rahbari farmoniga ko‘ra, Payariq tumani Choshtepa mahallasida istiqomat qiluvchi, 100 yoshdan oshgan Narzi Qurbonov “Shuhrat” medaliga sazovor bo‘ldi. Viloyat hokimi Adiz Boboyev Narzi Qurbonovning xonadonida bo‘lib, otaxonga yuksak davlat mukofotini topshirdi.

B.MUSTANOV.

16 nafar shaxsga O‘zbekiston fuqaroligi berildi



Shu yilning 25-avgust kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan farmonga muvofiq, Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan viloyatimizda istiqomat qiluvchi fuqaroligi bo‘lmagan 16 nafar shaxs O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi.

Viloyat hokimligida ushbu yurtdoshlarimizga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining ID-kartalari tantanali topshirildi. Viloyat hokimi Adiz Boboyev ularni tabriklab, yurtimizda tinch va farovon hayot kechirish, jamiyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishlarida muvaffaqiyat tiladi.

- Tojikistonning Panjikent tumanida tug‘ilganman, - deydi Farida Azizova. - Urgut tumanidagi Chumchuqli mahallasiga kelin bo‘lib tushganman. Shu paytgacha fuqaroligi bo‘lmagan shaxs hujjati bilan yashab kelayotgan edim. Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida ellik yoshimda menga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining ID-kartasi berilganidan juda xursandman. Bu kunlarni ko‘p yillar kutgandim. Endi o‘zimni shu yurtning to‘laqonli fuqarosi sifatida his qilyapman. Bu men uchun oddiy hujjat emas, balki uzoq yillik orzuimning ushalishi, yangi hayotimning yana bir quvonchli sahifasi bo‘ldi.

F.RO‘ZIBOYEV.

“Ishimni o‘g‘irlang, roziman...”

O‘zingning ich-ichingdan his qiladigan motiving bo‘lishi lozim, unga mos harakat qilarkansan, albatta, kunlardan bir kun “Evrika!” degan xitob yangraydi ichingda. Gulchehra opa ichidagi mana shu ishtiyoqni hali maktabda o‘qib yurgan paytlari, 5-sinfdaligidayoq his qilgandi. O‘shanda otasi unga ikki-uch xil gul ko‘chatlari olib kelib, uni parvarishlashni so‘radi. Otadagi o‘simlik dunyosiga mehr sabab bo‘ldimi, yo qizning otasi topshirig‘ini a’lo darajada uddalash ishtiyoqimi, hartugul bu gullar soni keyingi yilda yigirmatadan oshdi. Bu - yosh qizaloqning nabotot olamiga qiziqishini kuchaytirdi, u ko‘p vaqtini gullari yonida o‘tkazadigan, ular bilan xayolan suhbatlashadigan bo‘ldi. Maktabni bitirayotganda ham uning tanlovi aniq edi... Va qariyb 40 yil davomida maktabda o‘quvchilarga kimyo-biologiya fanidan dars berdi.

Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida ommaviy axborot vositalarida Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, mukofotlanganlar orasida opaning ism-sharifi ham bor edi. Oqdaryo tumanidagi shaxsiy tomorqa yer egasi” SOLIYEVA Gulchehra Tolipovna “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.



Qahramonimiz tomorqasini gullatgani uchun davlatimizning yuksak mukofotiga sazovor bo‘ldi.

- Nafaqaga chiqqanimdan so‘ng hayotimda biroz mazmun yo‘qolganday tuyuldi, axir har kuni o‘quvchilaring oldiga borib, ularga ilm o‘rgatishga ko‘nikkan odam, birdan bu muhitdan uzilib qolsang, qiyin bo‘larkan, - deydi Oqdaryo tumanidagi Po‘latdarxon mahallasida istiqomat qiluvchi “Shuhrat” medali sohibasi Gulchehra Soliyeva. – Turmush o‘rtog‘imga 2 sotixgina issiqxona quraylik, degandim, rozi bo‘ldi. O‘zim yoqtirgan mahalliy gullarni o‘stira boshladik. Qarasak, mijozlar paydo bo‘lyapti. Havas, qiziqishimiz maqsadga aylana boshladi. Odam bir ishni boshlab, unga astoydil mehr bersa va buni yurakdan bajarsa, har kun natijalarini ko‘raverar ekan. Keyinroq 11 sotix yerga gul ekib, parvarishladik. Bir yilda uch marta hosil yig‘amiz. Mahalliy ko‘chatlar bilan bir qatorda xorij gullarini ham olib kelib ko‘kartirdik, iqlimimizga moslashtirdik. 10-20 minglab ko‘chat buyurtma qiladigan mijozlarimiz paydo bo‘ldi. Ishimiz ham, safimiz ham kengaya boshladi. Oila a’zolarimiz, turmushga chiqib ketgan qizlarim va ish ko‘paygan payti o‘nga yaqin ishchilarni olib kelib ishlatamiz.

Menga qolsa, shu yerda gul o‘stirish ishlarimga yordam berganlar ishni o‘rgangach, mayli, uyida ham tashkil etsin. Yordamchilarimga doim “Ko‘chat o‘g‘irlamang, ishimni o‘g‘irlang”, deyman. Shu yerdan o‘rganib ketganini tatbiq etsin, ro‘zg‘origa foyda keltirsin.

Ko‘pchilik “gul, nihol o‘stirish uchun uquvdan tashqari qanday-dir bir iste’dod kerak, hammaning ham qo‘lidan kelmaydi, bu yumush”, deyishadi. Yo‘q, agar chindan istasa hamma eplaydi. Umuman, har qanday ishga mehr berib, yurakdan bajarsangiz bo‘ldi, shunday chiroyli natijaga erishasizki, ko‘rib o‘zingiz ham hayratlanasiz.

To‘g‘ri, yoshligimdan gul o‘stirganim, maktabda ishlaganimda ham o‘zim ishlagan joyimni gulga burkaganim uchun bu yumush men uchun oddiy holga aylanganday. Lekin doimiy ravishda o‘qib-izlanaman, kitob varaqlayman. Internetdagi gulchilik bilan bog‘liq tavsiyalarni, yangiliklarni doim kuzatib boraman. O‘zbekistonlik hamkasblarimdan ham onlayn tarzda bo‘lsada, ko‘p narsa o‘rgandim. Endi Xitoyga borib, ularning gulchilik bo‘yicha tajribasini o‘rganmoqchiman.

Ro‘zg‘orimiz butligi, moliyaviy jihatdan yaxshi ahvolda ekanimiz, hammasi shu gul ortidan. Shu gul ortidan “Shuhrat”li bo‘ldim, shukur!

Gulruh MO‘MINOVA.

Xolislikni oshirish maqsadida kelasi yil 5 ta hududlararo sud tashkil etiladi

Zarafshon

Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahallalarda nima gap?

Viloyatimizdagi 28 ta mahallaga «Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla» maqomi berilgan bo‘lib, ularning har biriga 5 milliard so‘mdan mablag‘ ajratilgan. Jomboy tumanidagi G‘azira va Eski Jomboy mahallalarida bo‘lib, ushbu dastur doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdik.



O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Jomboy tumani bo‘limi yetakchi mutaxassisi Jasur O‘rinovning ta’kidlashicha, davlatimiz rahbarining «Alohida tuman va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori asosida tumandagi G‘azira va Eski Jomboy mahallalariga «Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla» maqomi berilgan. Bunda tutash mahallalarni bog‘lovchi markaz vazifasini bajaradigan, yirik avtomobil yo‘llari yoki chegara hududlariga yaqin joylashgan, aholisi zich va ko‘p, infratuzilmasi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay bo‘lgan hududlar imkoniyati hisobga olingan. Ayni paytda mazkur mahallalarda ichki yo‘llarni asfaltlash, piyoda va salomatlik yo‘laklarini barpo etish, elektr energiyasi, ichimlik suvi va sug‘orish tarmoqlarini yaxshilash, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirish ishlari boshlangan.

«G‘azira» so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, «suvli, obod joy» degan ma’noni bildiradi. Qadimda Buyuk ipak yo‘li G‘azira qishlog‘idan o‘tgan bo‘lib, karvonlar shu yerda dam olib, savdo-sotiq ishlarini amalga oshirgan. Shu bois bu joy «G‘azira bozori» deb atalgan. Hozir ham hududda shu nom bilan ataladigan dehqon bozori mavjud bo‘lib, mahalla nomi shu tarixiy nomdan kelib chiqqan. Mahalla tuman markazidan 15 kilometr uzoqlikda joylashgan. Uning tarkibida to‘rtta qishloq bo‘lib, 5 ming nafardan ziyod aholi yashaydi.

– Mahallamiz markazlashgan hudud bo‘lib, to‘rtta mahallani bog‘laydi va G‘azira dehqon bozoriga tumandagi 12 ta mahalla aholisi keladi, – deydi G‘azira mahallasi raisi Zarif Normamatov. – Aholining asosiy daromadi dehqonchilik va chorvachilik. Bu yil Prezidentimiz qaroriga muvofiq, mahalla infratuzilmasini yaxshilash maqsadida 5 milliard so‘m mablag‘ ajratildi. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish va turizmni rivojlantirish qo‘shimcha drayver sifatida belgilanmoqda. Dastur doirasida 2,5 kilometr ichki yo‘llarni ta’mirlash, 1,6 kilometr piyodalar yo‘lagi qurish, 2,5 kilometr elektr tarmog‘i tortish, 3 ta yangi transformator, 110 ta tungi yoritish chirog‘i o‘rnatish, 1 ta suv inshooti qurish, 9,2 kilometr ichimlik suvi tarmog‘i tortish hamda 1 ta sug‘orish qudug‘i o‘rnatish rejalashtirilgan. Hozirda ishlar boshlangan bo‘lib, uzoq yillardan buyon aholini qiynab kelgan ichimlik suvi muammosini bartaraf etish maqsadida suv tarmoqlari tortilyapti. Natijada 200 ta xonadon toza ichimlik suvi bilan ta’minlanib, aholi uchun qulay infratuzilma yaratilmoqda.

– Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini mahallamiz misolida ham ko‘ryapmiz, – deydi G‘azira mahallasida yashovchi nuroniy Ilyosxon Ahrorov. – Albatta, bu o‘zgarishlarga fuqarolarimiz befarq emas.Tadbirkorlarimiz homiyligida va mahalla ahli ko‘magida keng ko‘lamli qurilish, obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, mahallamizda 13 kilometr ichki yo‘llar shag‘allashtirildi, 11 ta bekat tashkil etildi va sport maydonchasi barpo qilindi. G‘azira markaziy o‘yingohiga o‘rindiqlar, yoritish chiroqlari hamda 6 ta temir-beton ustun o‘rnatildi. Ayni paytda kutubxona va Shayx Xudoydodi Valiy majmuasi hududida ham qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Eski Jomboy mahallasi raisi Mirzoahmad Rahmatovning ta’kidlashicha, “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” dasturi doirasida mahalla markazini tashkil etish, yashil xiyobon va piyodalar yo‘laklarini qurish, 120 ta xonadonning 14,4 gektar tomarqasida sug‘orish tizimini yaxshilash va boshqa qurilish-ta’mirlash ishlari bosh pudratchi tashkilot “Shuhrat quruvchi nur” tomonidan amalga oshiriladi va ishlar endi boshlanadi.

– O‘n yildan buyon mahallamiz o‘z binosiga ega emas va ijara asosida turli binolarda ishlab kelyapmiz, – deydi Mirzoahmad Rahmatov. – Sug‘orish tizimi, yo‘llar, piyodalar yo‘laklari va elektr energiyasi bilan bog‘liq muammolar uzoq yillardan buyon aholini qiynab kelayotgan edi. Yil boshida mahallamizdagi mavjud muammolar o‘rganilib, 200 metr yo‘lga asfalt yotqizildi, 150 metr lotok, 28 dona quyosh panelli tungi yoritish chirog‘i, 19 dona tayanch temir-beton ustun va 1 ta transformator o‘rnatildi. 200 metr piyodalar yo‘lagi barpo etilib, 3720 dona mevali va manzarali ko‘chatlar ekildi. Bu ezgu ishlarning davomi sifatida mahallamizda 3 kilometr ichki yo‘llarni ta’mirlash, 2,1 kilometr piyodalar yo‘lagi qurish, 2,7 kilometr elektr tarmog‘ini tortish va 4 ta yangi transformator, 109 dona tungi yoritish chirog‘i o‘rnatish hamda mahalla binosini qurish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, mahallada 56 ta xonadonning tashqi qismi ta’mirlanadi, 16 ko‘chada 1500 dan ortiq daraxt ko‘chatlari ekiladi.

G‘azira va Eski Jomboy mahallalarida amalga oshirilayotgan ishlar nafaqat hudud infratuzilmasini yaxshilash, balki aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish, tadbirkorlik va xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Eng muhimi, loyihalarni to‘liq va sifatli amalga oshirish, belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash hamda ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan jamoatchilik nazorati o‘rnatilgan.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV,
“Zarafshon” muxbiri.

"Odil sudlov – 2030"

Joriy yil 14-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan “Odil sudlov - 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Asosiy maqsadi inson huquqlarini ishonchli himoya qiladigan, xalqchil, adolatli va zamonaviy sud tizimini shakllantirishga qaratilgan hujjat inson huquqlari, raqamlashtirish, advokatura, nizolarni sudgacha hal qilish va sud qarorlarining ijrosi kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Adolatli sud tizimi sari ...

Strategiyada 57 ta vazifa, uni amalga oshirish bo‘yicha 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar dasturida 160 ta aniq chora-tadbir hamda 2030-yilga qadar erishilishi lozim bo‘lgan 33 ta maqsad belgilangan.

Jumladan, quyi sudlar qarorlarini qayta ko‘rib chiqish xolisligini oshirish maqsadida 2027-yil 1-iyuldan 5 ta hududlararo sud tashkil etiladi. Viloyat sudlarida apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari saqlanib, taftish instansiyasining vakolatlari hududlararo sudlarga beriladi. Bu bir sudning o‘z qarorini o‘zi qayta ko‘rib chiqishi amaliyotiga chek qo‘yadi va fuqarolarning adolat izlab poytaxtga borish zaruratini kamaytiradi.

Kundalik hayotiy muammolarni hal etuvchi, odamlarning ishi ko‘proq tushadigan sudlar fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar ekanligini inobatga olib, ularni xalqqa yaqinlashtirish maqsadida 2030-yilga qadar zaruratga qarab qariyb barcha tuman va shaharlarda fuqarolik sudlarining faoliyati bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yiladi. Barcha sudlarda axborot olish, murojaat topshirish va raqamli xizmatlardan foydalanish “yagona darcha” tamoyili asosida ta’minlanadi.

Farmonga ko‘ra, 2027-yil 1-iyuldan umumyurisdiksiya va ma’muriy sud yo‘nalishlarida ishlarni qayta ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan, yurisdiksiya hududi bir nechta ma’muriy-hududiy birliklarni qamrab oladigan hududlararo sudlar tashkil etiladi.

Tergov sudyasiga tegishli protsessual majburlov choralarini qo‘llash (sanksiya berish) to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqishda shaxsni ushlab turishning qonuniyligi va asosliligi, gumon qilish yoki ayblov e’lon qilish uchun asoslar yetarliligini, shubha tug‘ilgan taqdirda, tergov sirini ta’minlagan holda qo‘shimcha hujjatlar talab qilish yo‘li bilan tekshirish vakolatlari beriladi.

2027-yil 1-avgustdan yagona sud amaliyotini shakllantiruvchi Oliy sud Rayosati qarorlarini belgilangan tartibda ochiq e’lon qilish va yangilab borish amaliyoti (“Pretsedentlar” reestri) joriy etiladi. Yil yakuniga qadar Oliy sudning interaktiv xizmatlar portali (my.sud.uz)ning yangilangan mobil ilovasi ishga tushirilib, “Sudga murojaat namunalari” interaktiv xizmati takomillashtiriladi.

Strategiyada nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini rivojlantirishga ham katta e’tibor berilgan. Mediatsiya, yarashuv va boshqa muqobil usullar taraflarga nizoni tezroq va kamroq xarajat bilan hal qilish imkonini beradi.

Bu mexanizmlarning ahamiyatini faqat sudlarning ish yuklamasini kamaytirish bilan cheklab bo‘lmaydi. Eng muhimi, taraflar o‘rtasidagi nizo chuqurlashib ketmasidan oldin uni hal qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ayniqsa, tadbirkorlik sohasida bu juda muhim. Uzoq davom etgan sud jarayoni biznes uchun vaqt, mablag‘ va ishbilarmonlik imkoniyatlarining yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin.

Odil sudlovning yana bir muhim sharti - shaxsning malakali yuridik yordam olish imkoniyatidir. Sud tizimi qanchalik zamonaviy bo‘lmasin, agar fuqaro o‘z huquqini himoya qilish uchun sifatli advokatlik yordamiga ega bo‘lmasa, suddagi protsessual imkoniyatlar tengligi ta’minlanmaydi.

Shu sababli advokatura institutini rivojlantirish, bepul yuridik yordam imkoniyatlarini kengaytirish va himoya huquqining kafolatlarini kuchaytirish strategiyaning inson huquqlariga qaratilgan mazmunini yanada mustahkamlaydi.

Hujjatga ko‘ra, sud tizimida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish ham yangi bosqichni boshlashi mumkin. Masalan, katta hajmdagi hujjatlarni tahlil qilish, huquqiy ma’lumotlarni izlash, protsessual muddatlarni nazorat qilish va hujjat loyihalarini tayyorlashda sun’iy intellekt sudyalarga yordamchi vosita bo‘la oladi.

Qisqasi, “Odil sudlov - 2030” strategiyasi O‘zbekistonda sud-huquq islohotlarining yangi bosqichini belgilab beruvchi muhim hujjat. Uning markazida sudlarni shunchaki zamonaviylashtirish emas, balki inson huquqlarini ishonchli himoya qilish, sudga bo‘lgan ishonchni oshirish va odil sudlovni aholi uchun yanada ochiq va qulay qilish g‘oyasi turibdi.

Furqat ANAROV,
viloyat sudi sudyasi.

Bayramning qadri uning shov-shuvida emas, inson qalbida qoldirgan taassurotida. Ayniqsa, mustaqillik singari xalq taqdiri, Vatan kelajagi va milliy g‘urur bilan bog‘liq ulug‘ ayyomda har bir tadbir ana shu yuksak tuyg‘ularga xizmat qilsa, uning mazmuni yanada teranlashadi.

Samimiy suhbatdan katta sahnagacha –

35 YILLIK SHONLI YO‘LGA EHTIROM, BUGUNGI TINCH HAYOTGA SHUKRONALIK



Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” bosh g‘oyasi ostida viloyatimizda o‘tkazilgan “Mustaqillik to‘yi” festivali nafaqat bayram tadbirlari, balki ezgulik, hamjihatlik, vatanparvarlik va ma’rifatni birlashtirgan keng qamrovli ijtimoiy-ma’naviy harakatga aylandi.

O‘NLAB TADBIRLAR MINGLAB QALBLARNI BIRLASHTIRDI

Festival doirasida belgilangan 12 yo‘nalish bo‘yicha 10 ta yirik ijtimoiy loyiha tashkil etildi. Ularda respublikadan kelgan 14 nafar ma’naviyat targ‘ibotchisi bilan bir qatorda 150 nafardan ziyod samarqandlik olimlar shoir va yozuvchilar, san’at va madaniyat vakillari ishtirok etdi.

- Uch kun davomida 20 ta ma’naviy-ma’rifiy tadbir va aksiya o‘tkazildi, - deydi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi rahbari Xolbek Ko‘bayev. - Ularga 21 ming 600 nafardan ziyod aholi va jamoatchilik vakillari jalb etildi. Targ‘ibot tadbirlari viloyatning 2 ta shahri va 5 ta tumanidagi 62 ta mahallani qamrab oldi.

BOLALAR QUVONCHI – YURT BAXTI

Jomboy tumanidagi “Zarafshon” kinoteatrida o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekistonning baxtiyor bolalari” loyihasi festivalning eng quvonchli manzillaridan biri bo‘ldi.

Tadbirda shu nomdagi kitob taqdimoti, madaniy-ma’rifiy kecha va konsert tashkil etildi. O‘zbekiston xalq artisti Matyoqub Matchonov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Gulbahor Erqulova, xonanda Alisher Ro‘zmetov ishtirokidagi dastur bolajonlarda unutilmas taassurot qoldirdi.

OBOD MAHALLA – OBOD HAYOT TIMSOLI

Festival dasturidan o‘rin olgan “Obod xonadon, obod mahalla” loyihasi ham hayotiyligi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Kattaqo‘rg‘on shahrining Go‘zalkent mahallasida obodonlashtirish, oilaviy totuvlik va ibratli turmush tarzi bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lib kelayotgan Mo‘minovlar xonadoni mehmonlarni qarshi oldi. Gullarga burkangan hovli, fayzli xonadon va samimiy suhbatlar bir haqiqatni yana bir bor ko‘rsatdi: obodlik insonning o‘z xonadonidan, o‘z mahallasidan boshlanadi.

Husan ELTOYEV,
Abror SHAXLASOV,
Asilbek NORPO‘LATOV (surat).

Mazkur maqolaning to‘liq matnini ushbu QR-kod orqali o‘qishingiz mumkin.

Mustaqillik bayrami: sanitariya–epidemiologik vaziyat nazoratda

Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligini munosib nishonlashga tayyorgarlik doirasida aholi salomatligi va sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash ham muhim vazifalardan biridir. Chunki bayramda bir necha kunlik dam olish e’lon qilingan bo‘lib, sayohat qilishga imkoniyat tug‘iladi, Samarqandga keluvchilar soni ham bir necha barobar ortadi. Shuning uchun bu jarayonga tayyorgarlik ishlar olib borilmoqda.

Xususan, boshqarma va hududiy bo‘limlarda 25-avgustdan 5-sentabrgacha tunu kun faoliyat yurituvchi shtablar tashkil etilib, ularga 85 nafar xodim biriktirildi. Bayram tadbirlari o‘tkaziladigan 18 ta maydonga 36 nafar, 19 ta markaziy bozorga 38 nafar, mahalla va guzarlar hududidagi savdo yarmarkalariga 42 nafar xodim mas’ul etib belgilandi.

Sanitariya xavfsizligini ta’minlash maqsadida 18 ta dezinfeksiya brigadasi tashkil etilib, ularga 36 nafar dezinfektor va dezinspektor biriktirildi. Epidemiologik noxush vaziyatlar yuzaga kelganda tezkor tekshiruv o‘tkazish uchun 16 ta epidemiologik guruh tuzilib, malakali mutaxassislar jalb qilindi.

Bayram tadbirlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bozorlar va savdo yarmarkalarida mahsulotlarning sifati va xavfsizligi ustidan kundalik nazorat yo‘lga qo‘yildi. Sifati kafolatlanmagan mahsulotlarni sotishning oldini olish, sotuvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va sanitariya talablariga rioya etilishini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.

Hududlarda tozalikni taminlash, chiqindilarni o‘z vaqtida olib chiqish hamda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishi yuzasidan kunlik nazorat o‘rnatildi.

Bayram kunlarida fuqarolardan gigiyena qoidalariga rioya etish, faqat sifati va kelib chiqishi kafolatlangan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish, tez buziladigan mahsulotlarni to‘g‘ri saqlash hamda ko‘cha va ruxsatsiz joylarda tayyorlangan oziq-ovqatlarni iste’mol qilmaslik so‘raladi.

Shuningdek, ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda tozalikni saqlash, chiqindilarni belgilangan joylarga tashlash, sanitariya-gigiyena talablariga amal qilish va o‘z salomatligiga etiborli bo‘lish lozim.

Latif RUSTAMOV,
viloyat sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig‘i.

O‘ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING

SAMARQAND VILOYATI KENGASHI

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi

viloyatimiz ahli va mehmonlarini istiqlolimizning

35 YILLIGI

bilan muborakbod etadi.



35 yil

BARCHANGIZGA SIHAT-SALOMATLIK, XOTIRJAMLIK TILAYMIZ!

O‘ZBEKISTON DAVLAT MUASSASALARI VA JAMOAT XIZMATI XODIMLARI KASABA UYUSHMASI

SAMARQAND VILOYATI KENGASHI

barcha yurtdoshlarimizni eng ulug‘, eng aziz bayram –

MUSTAQILLIK KUNI

bilan tabriklaydi.



YURTIMIZ TINCH, OSMONIMIZ MUSAFFO BO‘LSIN!

“TEMIR YO‘L DEHQON BOZORI”

MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

jannatmakon yurtimiz farzandlarini istiqlolimizning

35 YILLIGI

bilan qutlaydi.



XONADONINGIZGA TINCHLIK-OSOYISHTALIK, FAYZU BARAKA TILAYMIZ!

DA’VOLAR BO‘LSA...

Oqdaryo tumanidagi “YANGIQO‘RG‘ON PAXTA TOZALASH” aksiyadorlik jamiyati (STIR: 200725089) jamiyat aksiyadorlarining 2026-yil 8-apreldagi navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan ixtiyoriy ravishda tugatilmoqda.

Tugatilayotgan “YANGIQO‘RG‘ON PAXTA TOZALASH” aksiyadorlik jamiyatining kreditor qarzdorlik talablari ushbu e’lon chop etilgan sanadan e’tiboran, ikki oy mobaynida asoslantiruvchi hujjat bilan quyidagi manzilda qabul qilinadi: **Oqdayo tumani Yangiqo‘rg‘on shaharchasi, Bozorjoy ko‘chasi, 2-uy.**

“YANGIQO‘RG‘ON PAXTA TOZALASH” AJ TUGATISH KOMISSIYASI.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Xo‘jamqulov Husan O‘rinboyevich notarial idorasida marhum Narbayev Abduxamidga (2025-yil 30-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Xo‘jamqulov Husan O‘rinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 152-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasida marhum Djabbarov Tairga (2023-yil 3-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko‘chasi, 126-uy, 4-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasida marhum Maxmatkulov Abduvakil Abduxakimovichga (2024-yil 14-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Say Roman Borisovichga (2025-yil 21-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug‘diyona maskani, 14/12-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Mustafoyev Sobirga (2009-yil 27-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasida marhum Tursunova Baxmalga (2012-yil 6-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Mubin Ne’matjonovich notarial idorasida marhum Qushbaqov Marufjon Maxammatovichga (2025-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Mubin Ne’matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko‘chasi, 1-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Toshpulatova Muxabbat Maxmutovnaga (2024-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Kamalov Davronga (2026-yil 4-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

Ishtixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Isoqulov Shavkat Quroqboyevich notarial idorasida marhum Mitanov Baxtiyor Babayorovichga (1996-yil 17-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Isoqulov Shavkat Quroqboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Ishtixon tumani Mitan shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 42-uy.

* * *

Ishtixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Isoqulov Shavkat Quroqboyevich notarial idorasida marhum Turdanov Davronkulga (2023-yil 9-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Isoqulov Shavkat Quroqboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Ishtixon tumani Mitan shaharchasi, Amir Temur ko‘chasi, 42-uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Muxtorov Tajiboyga (2018-yil 18-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.

* * *

TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan 2016-yilda Xamidov Baxron Tolibovichga berilgan pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99895-123-90-63.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Lyutfiyev (Zayniyev) Mexroj Radjabboyevichga (2025-yil 16-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 80-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi “SAM GO‘SHT MAGAZINE” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309253295) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining Samarqand viloyat kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamoalari O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi o‘rinbosari Anvarjon Abdumuxtorovga bobosi

G‘offorjon NORTOJIYEVning vafoti munosabati bilan ta’ziya izhor etadi.

Kattaqo‘rg‘on tumanidagi 61-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi jamoasi maktabning matematika fani o‘qituvchisi


Sherzod SALIMOVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a’zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

Viloyatda davlat muhofazasiga olingan 1616 ta madaniy meros obyekti mavjud

Zarafshon

Mustaqillik va ma’rifiy ong

Mustaqillik hayotimizning barcha jabhalarida yangi sahifalar ochdi, yurtimiz dunyo hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin topdi. Xususan, mustaqillik tufayli ma’naviy hayotimiz tubdan o‘zgardi, milliy qadriyatlarimiz uyg‘ondi, unutilayozgan urf-odatlarimiz, tilimiz, dinimiz, ayniqsa, mutafakkir ajdodlarimizning betakror va boy merosi, xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy g‘ururi qaytadan tiklandi.
Xo‘sh, shu davr mobaynida jamiyatimizning ma’rifiy ongida nimalar o‘zgardi va o‘zgarmoqda?



MA’RIFIY ONG NIMA?

Ma’lumki, odamzot boshqa tirik mavjudotlardan o‘zining ongi bilan farq qiladi. Ijtimoiy ongning turli shakllari mavjud bo‘lib, ulardan biri ma’rifiy ongdir. Ma’rifiy ong borliqni, voqelikni va o‘z-o‘zini anglay olish, bilish va tahlil qilishga intilishi, ilmu ma’rifat, axloq va ma’naviy qadriyatlarga mos faoliyatidir. Ma’rifatli inson barcha sohalarda ham keng qamrovli bilimga ega bo‘lgan, axloqan yetuk inson. Ma’rifiy ong ma’rifatli insonlar tufayli shakllanadi. Jamiyatning ma’rifiy ongini shakllantiruvchi asosiy omillar esa quyidagilardan iborat.

Birinchidan, odamlarning, ayniqsa, yoshlarning ilm olishga intilishi, ularning zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallash, tafakkurini kengaytirishga bo‘lgan ehtiyoji;

ikkinchidan, kishilarning faqat moddiy ehtiyojlar bilan cheklanmay, ma’naviy va ma’rifiy kamolotga, axloqiy mezonlarga intilishi, ya’ni milliy qadriyatlar, insoniylik, mehr-oqibat va adolat kabi tushunchalarni ongli ravishda qabul qilishlari va ularga amal qilishi;

uchinchidan, odamlarning tanqidiy, mantiqiy va ijodiy fikrlashga o‘rganishlari, voqea-hodisalarga oqilona yondashib, ularga baho bera olishlari, shuningdek, ularning ekologik madaniyatini yuksaltirish;

to‘rtinchidan, mahalla bilan ta’lim muassasalarining hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish, odamlarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish;

beshinchidan, kasbiy rivojlanishga intilish, turli kasbda faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislarning o‘z ustida muntazam ishlashlari, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib borishlari.

Agar jamiyatda ma’rifiy ong yuksalib, shakllanib borsa, ma’naviy tahdidlar bartaraf etiladi, jamiyatning ma’naviy poydevori mustahkam bo‘ladi. Ma’rifatli odam ma’rifatsiz odamdan shunisi bilan farq qiladiki, u o‘zining kim ekanini, kundalik xatti-harakatlari, bajarayotgan amallari, o‘y-fikr va tasavvurlari o‘zi va o‘zgalar uchun qanchalik manfaat keltira olishini, foydali ekanini anglay oladi, o‘zini noxush harakatlardan tiyadi va nazorat qila biladi. Demak, ma’rifatli inson o‘zi va o‘z fazilatlari haqida to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantira oladi, o‘zligini, o‘z-o‘zini to‘g‘ri anglaydi.

Malaka oshirish kursiga kelgan 100 dan ziyod tinglovchiga “Inson kamolotida ma’rifiy ongning o‘rni qanday?” deb murojaat etilganda ularning 80 foizi “juda muhim”, 13 foizi “muhim emas”, qolganlari “bilmadim” degan javoblarni berishdi. Shuningdek, mahalla fuqarolar yig‘inlari raislarining o‘quv kursida o‘tkazilgan so‘rovnomada mahalla oqsoqollarining aksariyati (49 nafari) fuqarolar yig‘ini bilan maktablarning hamkorligi talab darajasida emasligini bildirgan edi.

Xullas, kuzatuvlarimiz shuni isbotlamoqdaki, mustaqillik tufayli paydo bo‘lgan zarurat – ma’rifiy ongni yuksaltirish jarayoni barcha jabhada bir xil kechayotgani yo‘q.

KOMIL INSON G‘OYASI

Komil insonni tarbiyalash barcha soha xodimlari – jamiyat a’zolarining pirovard maqsadiga aylanishi zarur. Albatta, ma’naviy hayotni yangilash zarurati komil inson g‘oyasini targ‘ib qilish, uni uzluksiz ta’lim jarayoni va mazmuniga chuqur singdirish bilan chambarchas bog‘liq. Komil inson g‘oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirganligi tarixdan ma’lum. Barkamollikni orzu qilmagan, komil insonlarni voyaga yetkazish haqida qayg‘urmagan xalqning, millatning kelajagi ham bo‘lmaydi. Insoniyat tarixi ushbu haqiqatni allaqachon isbotlagan. Komil inson – bu vatanparvarlik xislatlariga ega bo‘lgan, milliy g‘ururi kuchli, adolatparvar, xalqining sha’ni, obro‘si uchun kurashadigan, uni barcha narsadan ustun qo‘yadigan, ezgu g‘oyalar va o‘z xalqining ideallari uchun kurashuvchi fidoyi insondir. U o‘zining bilimdonligi, yuksak madaniyati, namunali xulq-atvori, erkin fikrlay olishi, ijtimoiy faolligi, ibrat namunasi bo‘lishi orqali boshqalardan ajralib turadigan ma’rifatli kishidir.

MAKTABNING SIFATI O‘ZGARISHI ZARUR

Jamiyatning ma’rifiy ongini yuksaltirishda maktab ta’limining o‘rni beqiyos. Hozirgi paytda maktab ta’limi islohotida shakl va mazmun uyg‘unligiga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Maktablarimizning faqat tashqi ko‘rinishiga emas, ta’limning sifatiga birinchi galda e’tibor qaratilishi kerak. O‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning shakli turli-tuman bo‘lishi tabiiy, ammo asosiy e’tibor ta’limning mazmuniga yo‘naltirilishi lozim. Shuningdek, ta’lim-tarbiyada intizom g‘oyat muhim omil hisoblanadi. Mana, aytaylik, hozirgi paytda maktablarimizda o‘qituvchi bilan o‘quvchi yoki ularning ota-onalari o‘rtasidagi pedagogik hamkorlik talab darajasida emas. Bu hamkorlikka putur yetgan. Uni bartaraf etmay turib, mazmunni yaxshilash mumkinmi? Yo‘q, albatta. Bu muammoni qatiy intizom orqali hal qilish mumkin. Albatta, turli mamlakatlarning ta’lim-tarbiya usullari ham turlicha. Bizda bolalarni zo‘ravonlikning har qanday shaklidan himoya qilish qonun bilan kafolatlangan. Shundan kelib chiqib, ta’lim-tarbiyaning turli usullarini qo‘llashda milliy mentalitetni ham hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

Tan olish kerak, bugungi kunda aksariyat ta’lim muassasalarida “Ustoz – shogird” tizimi talab darajasida ishlamayapti, undan foydalanish usullari eskirgan, zamonaviy yondashuvlari mavjud emas. Ushbu masalaga jiddiy qaralishi, ilg‘or muassasalar tajribalarini keng joriy qilish ham ijobiy natija beradi. Xalqimizning boy va betakror ma’naviy merosi, milliy qadriyatlari bor. Ammo ularni har tomonlama chuqur o‘rganish, bugungi avlodning ongi va qalbiga singdirish borasida muammolar ko‘p. Buyuk allomalarimiz, mutafakkirlar, ma’rifatparvar jadidlarimiz yaratgan bebaho merosni targ‘ib qilish masalasida ko‘p ishlar qilinishi kerak. O‘quvchilar bilan sayyor darslar tashkil qilish zarur. Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarda darslar asosan tabiat qo‘ynida, tegishli maskanlarda o‘tkaziladi. Bizda o‘quv xonasidan tashqariga chiqilmaydi. Qanchadan qancha muqaddas qadamjolar, obidalar, muzeylar bo‘laturib, ularga o‘quv tashriflari uyushtirish amaliyotidan oqilona foydalanish e’tibordan chetda qolmoqda.

Ma’rifiy ongni yuksaltirishning yana bir shakli – yurtdoshlarimizda kitob o‘qishga qiziqishni orttirish, kitob mutolasini milliy qadriyatga aylantirish. Ushbu yo‘nalishda an’anaviy tanlovlar o‘tkazilib kelayotgani har qanday tahsinga loyiq. Ushbu amaliyotni ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida, aholining keng qatlamlari o‘rtasida amalga oshirish ko‘zlangan natijani beradi.


Komil HAYDAROV,
viloyat pedagogik mahorat markazi professori, falsafa fanlari doktori.



SAMARQANDNING MADANIY MEROSI YANGI TARAQQIYOT bosqichiga chiqdi



Mustaqillik yillarida madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ularni asrab-avaylash hamda ilmiy asosda o‘rganish borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar Samarqandning boy tarixiy-madaniy merosini saqlash va uning dunyo miqyosidagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, madaniy meros obyektlarining xalqaro darajada e’tirof etilishi va turizm infratuzilmasining takomillashuvi viloyatning turizm salohiyatini oshirib, mahalliy hamda xorijiy sayyohlar oqimi yil sayin ko‘payishiga zamin yaratmoqda.




Istiqlol yillarida Samarqand tarixiy markazining UNESKO umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilganining o‘zi ko‘hna kentning jahon sivilizatsiyasida beqiyos o‘rni borligini tasdiqlaydi. Ushbu tarixiy markaz 1123 gektar, muhofaza hududi esa 1369 gektar maydondan iborat. Bugungi kunda viloyatda davlat muhofazasiga olingan 1616 ta madaniy meros obyekti mavjud bo‘lib, ularning 976 tasi arxeologiya yodgorliklari, 566 tasi me’moriy obyektlar, 40 tasi monumental san’at asarlari hamda 34 tasi diqqatga sazovor joylardir. Obyektlarning 1011 tasi respublika, 605 tasi mahalliy ahamiyatga ega va ular orasida xususiy mulkdagi tarixiy turar joy binolari ham bor.

Keyingi yillarda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida viloyatda o‘ndan ziyod yangi madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olindi, 57 ta yodgorlikda ta’mirlash, tiklash va restavratsiya ishlari amalga oshirildi. Jumladan, Shohi Zinda majmuasi, Imom Moturidiy, Amir Temur, Xo‘ja Doniyor maqbaralari, Imom Buxoriy majmuasi, Hazrati Xizr masjidi, Registon ansambli, Ulug‘bek rasadxonasi va Afrosiyob muzeyida bajarilgan ishlar bugungi kunda milliy me’morchilik va restavratsiya maktabining yuksak salohiyatini namoyon etmoqda. Ayniqsa, buyuk allomalarimiz hayoti va faoliyati bilan bog‘liq tarixiy manzillar davlat muhofazasiga olingani milliy ma’naviyatimiz va tarixiy xotiramizni mustahkamlash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Amalga oshirilgan eng ulkan bunyodkorlik ishlaridan biri Imom Buxoriy ziyoratgohining mutlaqo yangi qiyofada barpo etilganidir. 45 gektar maydonda qad rostlagan majmuada 10 ming namozxonga mo‘ljallangan masjid, milliy me’morchilik an’analari asosida qurilgan muhtasham ayvon, 14 ta moviy gumbaz, 75 metrli to‘rtta minora va zamonaviy infratuzilma barpo etildi. Majmua tarkibida tashkil etilgan 9 pavilondan iborat innovatsion muzeyda Imom Buxoriyning hayoti va boy ilmiy merosi, hadis ilmining shakllanish tarixi, islom sivilizatsiyasi rivoji hamda muqaddas Qur’onda nomi zikr etilgan payg‘ambarlar haqidagi noyob ma’lumotlar zamonaviy texnologiyalar orqali namoyish etilmoqda. Ilgari kuniga 12 ming nafar ziyoratchini qabul qilgan majmua bugungi kunda 65 ming nafargacha ziyoratchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining qaroriga ko‘ra, o‘tgan yil yurtimizda Imom Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1155 yilligi keng nishonlandi. Ulug‘ alloma hayoti va ilmiy merosini o‘rganish hamda keng targ‘ib etishga qaratilgan xalqaro va respublika ahamiyatidagi anjumanlar o‘tkazildi, moturidiylik ta’limoti bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar dunyo olimlari nigohida bo‘ldi. Shu bilan birga, sana munosabati bilan Samarqand shahridagi Abu Mansur Moturidiy majmuasida qurilish-obodonlashtirish ishlari boshlanib, ulug‘ alloma va ulamolar merosini o‘rganish maqsadida “Chokardiza” qabristoni hududida arxeologik tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayni vaqtda Moturidiy majmuasi hududida Hindiston, Pokiston, Xitoy hamda Eron davlatlaridan jalb etilgan mutaxassislar bilan hamkorlikda qurilish-ta’mirlash ishlari davom etmoqda.

Umumiy maydoni qariyb 5 gektarni tashkil etadigan Mahdumi A’zam ziyoratgohiga keluvchi ziyoratchilar uchun sharoitlarni yaxshilash maqsadida Mahdumi A’zam maqbarasi yonida uch qavatli zamonaviy avtoturargoh, kirish darvozasi, kushxona va ma’muriy binolar, tahoratxona, ming kishilik masjid va qo‘shimcha ayvonlar qurildi. Shuningdek, viloyatimizdagi Xo‘ja Ahrori Valiy, Bahouddin Sog‘arjiy kabi buyuk mutafakkirlar maqbaralari va boshqa madaniy meros obyektlarida ham qurilish-obodonlashtirish ishlari olib borilib, ziyoratchilar uchun qulay sharoit yaratildi.



Ziyodulla NASIMOV,
viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 265 nusxada chop etildi. Buyurtma 332. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E’LONLAR:** (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: F.RO‘ZIBOYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda